


**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi**  
**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

**60910600-Tibbiy - *biologiya ishi* bakalavriat ta’lim yo‘nalishining  
malaka talablari**

**Toshkent**

1



## ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent tibbiyot akademiyasi.

## TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiyot tibbiyot akademiyasi uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengashning 202\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_- sonli yig'ilishida ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 202\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 202\_ yil «29» 02 dagi 5 - sonli yig'ilishida ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 202\_ yil «9» 09 dagi 302 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

## JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Mazkur Malaka talablari 910000 – Sog'liqni saqlash ta'lim sohasi Davlat ta'lim standarti, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60910600 - Tibbiy - biologiya ishi</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1	<i>60910600 - Tibbiy - biologiya ishi</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi .....	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	<i>60910600 - Tibbiy - biologiya ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1	<i>60910600 - Tibbiy - biologiya ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2	<i>60910600 - Tibbiy - biologiya ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari .....	5
1.2.3	<i>60910600 - Tibbiy - biologiya ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari .....	6
1.2.4	<i>60910600 - Tibbiy - biologiya ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari .....	6
2.	<i>60910600 - Tibbiy - biologiya ishi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar...	8
2.1	Umumiy kompetentsiyalar .....	8
2.2	Kasbiy kompetentsiyalar .....	8
	Biblografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i.....	10

## **1. 60910600 - Tibbiy - biologiya ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

**60910600 - Tibbiy - biologiya ishi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60910600 - Tibbiy - biologiya ishi ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **60910600 - Tibbiy - biologiya ishi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv hodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o'kituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshkarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat kiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ot-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 60910600 - Tibbiy - biologiya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi. ■**

##### **1.2.1. 60910600 - Tibbiy - biologiya ishi talim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

60910600 - Tibbiy - biologiya ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan va sog'liqni saqlash sohasiga tegishli yo'nalish bo'lib, ta'lim jarayonida, ilmiy-tadqiqot va sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida aholi o'rtasida o'tkir va surunkali kasalliklarni erta tashxislash, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, kasalliklarni tashxislashning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari bo'yicha asosiy vazifalarni bajarish bo'yicha kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi. Bundan tashqari:

- sog'liqni saqlash tizimida laboratoriya ishini tashkil etish;

- kasalliklarning laborator diagnostikasi, sanitariya-gigiena sohasida laborator tekshiruvlarini qo‘llash;
- keng tarqalgan kasalliklar laborator diagnostikasini o‘tkazish;
- kasalliklarning laborator diagnostikasida zamonaviy laboratoriya asbob-uskunalari, vositalarini keng qo‘llash;
- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimidagi davolash-profilaktika tibbiyot muassasalari, sanitariya-epidemiologiya xizmati muassasalari laboratoriyalarida faoliyat yuritish.

**1.2.2. 60910600 - Tibbiy - biologiya ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:**

- davolash-profilaktika muassasalari laboratoriyalari;
- oilaviy poliklinikalar laboratoriyalari;
- qishloq vrachlik punktlari laboratoriyalari;
- qishloq oila poliklinikalari laboratoriyalari;
- ilmiy ixtisoslashtirilgan markazlar laboratoriyalari;
- sanitariya-epidemiologiya xizmati muassasalari laboratoriyalari;
- sog‘liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog‘liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislari, ilmiy-tadqiqot ishlari, me’yoriy hujjatlar, ma’lumotnomalar, hisobotlar;
- ta’lim tizimidagi o‘quv jarayoni, ta’lim sohasiga ta’luqli standartlar, dasturlar, xujjatlar, o‘quvchi va talabalar, o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan usul va vositalar;
- laboratoriya asbob-uskunalari, laboratoriya vositalari, tahlillar, reagentlar, resurslar, usul va uslublar majmuasi;
- jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;
- ilmiy-tadqiqot jarayoni, laboratoriya va anjomlar, tashxislash usullari, innovatsion texnologiyalar va loyihalar.

**60910600 - Tibbiy - biologiya ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:**

- sog‘liqni saqlash tizimida tibbiy tashxislash faoliyatni tashkil etish;
- aholi orasida keng tarqalgan o‘tkir va surunkali kasalliklar bo‘yicha barcha turdagi tashxislash chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiq etish;
- aholi sog‘ligini saqlash maqsadida o‘tkazilgan davriy tibbiy ko‘riklarda laborator tekshiruvlari o‘tkazish, turli hil kasalliklarni laborator-diagnostik usullar bilan tekshirish, sanitariya-gigiena sohasida laborator tekshiruvlari o‘tkazish;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish va mutaxassislikka doir tibbiy fanlarni talab darajasida o‘qitish;
- tibbiyot sohasida dolzarb bo‘lgan kasalliklar hamda muammolar bo‘yicha zamonaviy ma’lumot, bilimlarga ega bo‘lish va faoliyati davomida ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan muntazam tanishib borish;

- aholi orasida keng tarqalgan kasalliklar bo'yicha zamonaviy tashxislash standartlarini maqsadga yo'naltirilgan holda amaliyotda qo'llash;
- aholini ijtimoiy muhofaza qilishda uning uchun ma'sul bo'lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda mavjud resurslardan unumli foydalanish;
- sog'liqni saqlash tizimining mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarishda ishtirok etish;
- tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan muammolar bo'yicha ilmiy - tadqiqot faoliyatini talab darajasida olib borishda ishtirok etish.

### **1.2.3. 60910600 - Tibbiy - biologiya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tashkiliy boshqaruv;
- tibbiy tashxislash;
- uslubiy;
- ilmiy-tadqiqot;
- tibbiy-ijtimoiy;
- pedagogik (o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi tizimida) faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

### **1.2.4. 60910600 - Tibbiy - biologiya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari**

60910600 - Tibbiy - biologiya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Tashkiliy - boshqaruv faoliyatida:**

- sog'liqni saqlash tizimi davolash-profilaktika muassasalarida laboratoriya ishini tashkillashtirish va boshqarishda ishtirok etish;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;
- tibbiyot sohasidagi boshqaruvni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalariga mos tarzda takomillashtirish;
- aholi sog'ligi holatining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va hisobotlar tayyorlash;
- aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarni tashxislash chora tadbirlarni tashkillashtirish;

#### **Tibbiy tashxislash faoliyatida:**

- sog'liqni saqlash tizimi birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi bo'g'imlarida kasalliklarni tashxislash ishlarini olib borish;
- shifoxona, klinika, dispanser, tibbiy markazlar diagnostik laboratoriya bo'limlarida tashxislash ishlarini olib borish;

– tibbiyot muassasalarida laborator xizmatlarni tashkil qilish va amalga oshirish;

– tashxislash faoliyatida ilg‘or, zamonaviy laboratoriya usullarini joriy etish;

#### **Uslubiy faoliyatida:**

– laboratoriya ishini takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borish va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

– kasalliklar laborator tashxisiga oid seminarlar o‘tkazish;

– davolash profilaktik muassasalari faoliyatini va aholi salomatligining asosiy ko‘rsatkichlarini qayd etish, tahlil etish va hisobot tayyorlash;

– “valeologiya” ixtisosligi bo‘yicha tibbiy faoliyatni amalga oshirish;

– kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

#### **Ilmiy -tadqiqot faoliyatida:**

– ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlar, oliy ta‘lim muassasalarida tibbiy biologiya ishiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

– internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

– tibbiy biologiya ishi, tibbiyotga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;

– kasbiy faoliyat ob‘ekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish;

– tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazishi, ularning natijalariga ishlov berishi, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

– ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlashi, sohaga oid adabiyotlarni ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

– tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashishi;

– ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish;

– ma‘lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlarni tizimli tahlil qilish, ilmiy-amaliy mavzuviy jurnallarga maqolalarni tayyorlash va chop etish;

#### **Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:**

– ijtimoiy soha himoya organlari va rahm-shafqat xizmatlari bilan hamkorlikda tibbiy-ijtimoiy xizmat turlarini tashkillashtirish va xizmat ko‘rsatish;

– aholi o‘rtasida jismoniy, tibbiy-ijtimoiy va psixologik nufuzni tiklash va rivojlantirish;

– oila va alohida aholi guruxlari o‘rtasida inson salomatligiga ta‘sir qiluvchi asosiy ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va havf omillarini bartaraf qilish;

#### **Ilmiy - pedagogik faoliyatda:**

– o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari (biologiya, mikrobiologiya, normal va patologik fiziologiya, anatomiya, patologik anatomiya, biologik kimyo, gistologiya, laboratoriya ishi) bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

– o‘quv fanlarini o‘qitish uslubiyotini egallash;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
- o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o‘qitilayotgan fan bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta‘lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish.

## **2. 60910600 - Tibbiy-biologiya ishi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetentsiyalar:**

- joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini bilish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy-ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish; yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilish;
- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma‘naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi lozim.

### **2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:**

- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlik ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotli shaxslar egallashi lozim bo‘lgan lavozimlarda mustaqil ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta‘limi olish uchun tayyorlanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- laborator diagnostik muolajalarni bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;



- laborator tashxislash rejasini tuzish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- laborator tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- laboratoriyada havfsizlik muhitini tashkil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- jamoa orasida, bemorlar o‘rtasida, aholi orasida kasbiy etika va deontologiya qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- dalillarga asoslangan tibbiyotning keng qamrovli printsiplariga, dalillarga asoslangan tibbiy ma’lumotlarni taxlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- favqulotda va shoshilinch holatlarda malakali laborator tashxislash ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

### **Bibliografik ma’lumotlar**

UDK: 002:651.1/7  
55

Guruh T

OKS 01.040.01

---

#### **Tayanch so‘zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat ob’ekti, kasbiy faoliyat soxasi, bakalavrning asosiy o‘quv reja va dasturlari, o‘quv davri, malaka talablari, bakalavriatning o‘quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta’lim, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o‘quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, tibbiy bilim, tibbiy yo‘nalishlar, sog‘liqni saqlash tizimi, laboratoriya, amaliy ko‘nikmalar, kasallik, davolash-profilaktika muassasalari, diagnostika, etiologiya, patogenez, morfologiya, gistologiya.

# KELISHUV VARAG'I

## ISHLAB CHIQLDI:

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Rektor A.K. Shadmanov

2022 yil " 1 " es



## KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or  
texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Toshkent pediatriya tibbiyot  
instituti

Direktor Sh. Yakubov

2022 yil " 2 " es

M.O'.

Rektor B.T. Daminov

2022 yil « 3 » es

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni  
saqlash vazirligi  
Fan va ta'lim boshqarmasi

Boshliq O.S. Ismailov

2022 yil " 5 " es

M.O'.

Toshkent shahar sog'liqni saqlash  
bosh boshqarmasi

Boshliq A.V. Alimov

2022 yil " 8 " es

M.O'.